

TO'QIMACHILIK SANOATINING BARQAROR VA INNOVATSION RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Raximov Furqat Jalolovich

TDIU, “Yashil iqtisodiyot”
kafedrası tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada to'qimachilik sanoatining barqaror va innovatsion rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Jahon tajribasi asosida ushbu sohaning global iqtisodiyotdagi o'rni, raqamlashtirish, “yashil iqtisodiyot”, ESG standartlariga mos ishlab chiqarish, hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiya qilish, “Textile Industry 2030” strategiyasi doirasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish hamda klaster tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, innovatsion rivojlanish, barqarorlik, klaster tizimi, ESG standartlari, “yashil iqtisodiyot”, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, IoT texnologiyalari, eksport salohiyati, Textile Industry 2030.

Аннотация

В данной статье анализируются направления устойчивого и инновационного развития текстильной промышленности. На основе мирового опыта рассматриваются роль данной отрасли в глобальной экономике, процессы цифровизации, внедрение принципов «зелёной экономики», соответствие производственных процессов стандартам ESG, а также применение инновационных технологий. Кроме того, в статье анализируется государственная политика Узбекистана, направленная на модернизацию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, производство продукции с высокой добавленной стоимостью в рамках стратегии «Textile Industry 2030», повышение экспортного потенциала и развитие кластерной системы.

Ключевые слова: текстильная промышленность, инновационное развитие, устойчивость, кластерная система, стандарты ESG, зелёная экономика, цифровизация, искусственный интеллект, технологии IoT, экспортный потенциал, Textile Industry 2030.

Abstract

This article analyzes the directions of sustainable and innovative development of the textile industry. Based on global experience, it examines the role of this sector in the world economy, the processes of digitalization, the implementation of the “green economy” principles, compliance with ESG standards, and the introduction of innovative technologies. The study also explores Uzbekistan's state policy aimed at modernizing the textile and apparel industry, producing high value-added products

under the “Textile Industry 2030” strategy, enhancing export potential, and developing the cluster system.

Keywords: textile industry, innovative development, sustainability, cluster system, ESG standards, green economy, digitalization, artificial intelligence, IoT technologies, export potential, Textile Industry 2030.

Jahon miqyosida to‘qimachilik sanoati XXI asrning eng muhim strategik tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu soha nafaqat xalq xo‘jaligining iqtisodiy o‘rinish drayverlaridan biri, balki barqaror rivojlanish, texnologik yangilanish va mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy va ekologik muammolar — xususan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy xomashyo manbalari tanqisligi, energiya resurslarining cheklanganligi hamda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga moslashish zarurati sanoat sohalarida barqaror va innovatsion yechimlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), Yevropa Ittifoqining “Green Deal” dasturi hamda UNIDO tomonidan ilgari surilayotgan toza, “yashil” va raqamlashtirilgan ishlab chiqarish modellari muhim konseptual asos vazifasini bajarmoqda.

Zamonaviy to‘qimachilik ishlab chiqarish faqatgina an‘anaviy tabiiy tolalarga emas, balki sun‘iy va kimyoviy tolalarga asoslangan yuqori texnologiyali yechimlarga suyanayotgani kuzatilmoqda. Xususan, poliester, neylon, akril va sellyuloza asosidagi sintetik tolalarni qayta ishlash imkoniyati, ularning funksional xususiyatlari va “Smart Textile” kabi intellektual mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi xalqaro bozorda ilmiy-texnik rivojlanish va innovatsiyalarning yangi bosqichiga olib kelmoqda. Bu tendensiyalar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan yangi paradigmani shakllantirmoqda.

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning eksportbop va aholi bandligini ta‘minlovchi yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq texnologik zanjirni yaratish yo‘lida izchil rivojlanmoqda. Mazkur sohani faqat an‘anaviy paxta yetishtirish bilan cheklamasdan, balki sun‘iy va kimyoviy tolalarga asoslangan, diversifikatsiyalangan va innovatsion ishlab chiqarish modellarini shakllantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, “Textile Industry 2030” strategiyasida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tolali mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, to‘qimachilik sanoati bilan bog‘liq neft-kimyo, kimyo, sellyuloza-qog‘oz va qayta ishlash sohalarida o‘rtasidagi integratsiya milliy iqtisodiyotda texnologik sinergiya yaratish imkonini bermokda. Bu, o‘z navbatida, resurslardan oqilona foydalanish, import o‘rnini bosish, energiya tejankor texnologiyalarni tatbiq

etish hamda ESG standartlariga mos ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, sohada raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, sun'iy intellekt (AI) va IoT (narsalar interneti) asosidagi innovatsion yechimlardan foydalanish, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytirish kabi tendensiyalar barqaror industrial rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. To'qimachilik sanoatini sun'iy va kimyoviy tolalar asosida barqaror hamda innovatsion rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish milliy sanoatni yangi sifat bosqichiga olib chiqishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish, innovatsion texnologiyalar transferi, hamkorlik platformalari hamda kadrlar salohiyatini oshirish strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda jahonda to'qimachilik mahsulotlari savdosi hajmi bo'yicha yettinchi o'rinni egallab, umumiy bozor qiymati taxminan 882 milliard AQSH dollarini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich to'qimachilik sohasining global iqtisodiyotda tutgan o'rni va uning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Tahlillarga ko'ra, Xitoy Xalq Respublikasi mazkur sohada yetakchi mavqega ega bo'lib, u nafaqat eksport hajmi bo'yicha, balki ishlab chiqarish va chakana savdo sohalarida ham ustunlikka ega. Xitoyning to'qimachilik sohasidagi muvaffaqiyati, asosan, yuqori texnologiyalardan foydalanish, xomashyo bazasini samarali boshqarish, arzon ishchi kuchi va davlat darajasidagi tizimli qo'llab-quvvatlash siyosati bilan izohlanadi [1].

O'zbekiston ham so'nggi yillarda to'qimachilik va tikish-trikotaj sanoati sohasini milliy iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarmog'i sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Prezident tomonidan imzolangan "To'qimachilik va tikish-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon [2] sohaning institutsional va texnologik asoslarini mustahkamlashni, shuningdek, eksport salohiyatini kengaytirishni nazarda tutadi.

Ushbu farmonga muvofiq, 2025–2027-yillarda to'qimachilik va tikish-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini 7 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan. Bu vazifani amalga oshirish uchun moliyaviy va soliq imtiyozlarini nazarda tutuvchi maxsus qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, sohadagi asosiy muammolardan biri — xomashyo ta'minotining yetarli emasligi hisoblanadi. Hozirda O'zbekistonda yillik 1,3 million tonna tolani qayta ishlash quvvati mavjud bo'lsa-da, amaldagi ishlab chiqarish hajmi 1 million tonna atrofida. Bu esa mavjud salohiyatning to'liq ishga solinmayotganini ko'rsatadi. Shu bois, paxta yetishtirish samaradorligini oshirish, uning tannarxini kamaytirish va tolani chuqur qayta ishlashni kengaytirish sohadagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan olib qaralganda, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qiymat zanjiri bo'yicha chuqur qayta ishlash hamda yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu bilan birga, sohada "yashil ishlab chiqarish" (green production), raqamlashtirish va ESG standartlariga mos korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish ilmiy-nazariy jihatdan muhim yo'nalish hisoblanadi. Xususan, klaster tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish zanjirining to'liq siklliligini ta'minlashda muhim strategik vositaga aylandi.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, faqatgina 2019–2020-yillar davomida mamlakatda 82 ta to'qimachilik klasteri tashkil etilgan bo'lib, bu iqtisodiy islohotlar samaradorligining yaqqol ko'rsatkichi hisoblanadi. 2023-yilga kelib uchun "Association of Textile and Garment Industry Enterprises of Uzbekistan" ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda 142 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etgan [3]. Bu esa mamlakatda "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" bo'lgan texnologik zanjirning to'liq integratsiyalangan holda shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

To'qimachilik klasterlari faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va texnologik ahamiyatga ham ega. Ular orqali qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi kooperatsiya kuchaymoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, hududiy infratuzilma rivojlanmoqda hamda mahalliy byudjetlarga soliq tushumlari ortib bormoqda.

Shu bilan birga, respublikada to'qimachilik va tikish-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, hamda texnik va texnologik yangilanish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, "klaster modeli"ni joriy etish va uni institutsional jihatdan mustahkamlash sohadagi modernizatsiya va innovatsion boshqaruvning asosiy yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Klasterlarning rivojlanishi — bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali milliy eksport salohiyatini kengaytirish imkonini ham yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, jahonda va O'zbekistonda to'qimachilik sanoati rivojlanishining asosiy tendensiyalari – bu innovatsiya, raqamlashtirish, barqarorlik va resurs tejamkorligini ta'minlashdir. Shuning uchun ham milliy iqtisodiyot uchun to'qimachilik tarmog'ini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, klaster tizimini rivojlantirish va xalqaro kooperatsiyani kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsiya va investitsiyalarni jalb qilish hamda eksport

yoʻnaltirilgan iqtisodiy modelga bosqichma-bosqich oʻtishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/textile-exports-by-country>
2. <https://sputniknews.uz/20250122/ozbekiston-toqimachilik-tikuvtrikotaj-mahsulotlar-eksport-47647182.html>
3. <https://kapital.uz/textile-perspectives>
4. Хакимов З. А., Бердиев Б. Б. ОЦЕНКА ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ АГЛОМЕРАЦИОННЫХ ИНДЕКСОВ В ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ //Фундаментальные и прикладные исследования в области управления, экономики и торговли. – 2023. – С. 347-356.
5. Хакимов З. А. ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛАСТЕРОВ “ИНДУСТРИЯ 4.0” //Инновации и инвестиции. – 2022. – №. 3. – С. 207-213.
6. Шарипов И., Хакимов З. Совершенствование методов оценки конкурентоспособности предприятий легкой промышленности //Экономика и инновационные технологии. – 2017. – №. 3. – С. 218-228.